



AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA SUN'IY INTELLEKT BADIY ADABIYOTDA

**Abdullayeva Dilorom
Nosir qizi**

*O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-bosqich magistranti
abdullayevadilorom95@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi zamonaviy hayotda insoniyatning buyuk kashfiyotlaridan bir bo'lgan axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va uning badiiy adabiyotdagi o'rni haqida so'z yuritilgan bo'lib, uning keng imkoniyatlari aniq dalillar va misollar orqali isbotlab berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются информационные технологии как одно из величайших достижений человечества в современном мире, а также роль искусственного интеллекта в художественной литературе. Широкие возможности этой технологии подтверждаются конкретными доказательствами и примерами.

Annotation: This article discusses information technology, one of humanity's great inventions in modern life, and the role of artificial intelligence in artistic literature. Its vast possibilities are demonstrated through specific evidence and examples.

Kalit so'zlar: Texnika va texnologiya, axborot vositalari, sub'iy intellekt, adabiy tadqiqot, rekomindatsiya, badiiy ijod, interaktiv hikoyalar, metodika

Ключевые слова: Техника и технология, средства информации, искусственный интеллект, литературное исследование, рекомендация, художественное творчество, интерактивные истории, методика

Keywords: Technology and technique, Information media, artificial intelligence, literary research, recommendation, artistic creation, interactive stories, methodology

KIRISH.

Bugungi glaballashuv davrida axborot vositalari va uning turlaridan foydalanish zamon talabiga aylandi. Texnika vositalarining har bir sohaga kirib borishi esa bu fikrimizning yorqin misoli bo'la oladi. Shu o'rinda ushbu qurilmalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish bugunning eng dolzarb masalasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ilm olish, ma'naviy olamni boyitish, olingan bilimni real dunyoga, keng jamoatchilikka tadbiq eta olish uchun turli yangiliklar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yuqorida ta'kidlaganimizdek axborot

vositalaridan foydalanib jahon standartlariga xos zamonaviy va yetuk barkamol shaxs bo'lib yetishmoqlik uchun qulay sharoitlar yaratildi. Ya'ni, istalgan sohada, yurtimizning istalgan burchagida zamonaviy gadjetlardan bimalol foydalanish huquqiga, imkoniyatiga egamiz. Shu jumladan badiiy adabiyot ham bundan mustasno emas.

Bugungi kunda ta'lim sohasida sun'iy intellekt jadal ravishda o'sib bormoqda. Chunki u turli ma'lumotlarni aniqlab o'rganish, ularni analiz-sintez qilish, ba'zan o'zgartirish, va hatto tasavvur qilish kabi ko'p tarmoqli imkoniyatlarga ega. Ushbu sanab o'tilgan tizimlar o'qish va o'qitishda aniq maqsadga yo'naltirilgan rejalarini, axborotni qidirishga, ulardan foydalanishga, yaratilgan mahsulotni keng ommaga targ'ib qilishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarning oltinga teng vaqtlarini tejashga yordam beradigan insoniyatning olamshumul ixtirosi ham aynan sun'iy intellektidir. Sababi u birgina buyruq orqali siz tomoningizdan berilgan istalgan buyrug'ingizga "labbay" deya javob bera oladi. Siz o'zingizni qiziqtirgan barcha savollarga u orqali javob olishingiz va foydalanishingiz mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Axborot texnologiyalari va sun'iy intellektni ilm-fanga joriy etish zamon bilan hamnafas bo'lishni istagan barchaga muhim omil sanaladi. Shu o'rinda adabiyotshunos olimlar va badiiy ijod namoyondalari ham ulardan mana necha yillardan buyon foydalanib kelishmoqda. Masalan, kompyuter, telefon va shu kabi texnik vositalar orqali soha vakillarining ishi ancha yengillashdi. Google, Chrome, Yandex kabi sun'iy intellektning ilg'or namunalari orqali esa axborotning bitmas-tuganmas manbaiga ega bo'lish mumkin. Sun'iy intellekt adabiyot sohasida bir qator imkoniyatlar yaratmoqda:

1. Avtomatik yozish: Sun'iy intellekt yordamida hikoyalar, she'rlar yaratish mumkin. Masalan, OpenAI ning GPT modellaridan foydalangan holda turli janrlarda matnlar ishlab chiqarish mumkin.

2. Tahlil va tahrir: Sun'iy intellekt matnlarni tahlil qilish, grammatik va stilistik xatolarni topish hamda yozuvchilarga takliflar berish uchun foydalaniladi.

3.Rekomendatsiya tizimlari: Kitoblarni tavsiya qilishda sun'iy intellekt foydalanuvchilarning o'qish tarzi va qiziqishlariga asoslanadi.

4. Adabiy tadqiqotlar: Sun'iy intellekt yordamida katta hajmdagi adabiy asarlarni tahlil qilish, mavzularni aniqlash va yangi tendentsiyalarni topish mumkin.

5. Interaktiv hikoyalar: Sun'iy intellekt asosida o'yinlar va interaktiv hikoyalar yaratish orqali foydalanuvchilar o'z qarorlariga ko'ra voqealarni boshqarishi mumkin.

6. Generativ yozuv: Sun'iy intellekt yordamida o'ziga xos qahramonlar va syujetlarni yaratish, shu orqali yangi hikoyalar yoki romanlar yozish imkoniyati.

7. Tarjima: Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan avtomatik tarjima xizmatlari, masalan, Google Translate, adabiy asarlarni boshqa tillarga tarjima qilishda yordam beradi.

8. Ovozli kitoblar: Sun'iy intellekt yordamida matnni ovozga aylantirish texnologiyalari, o'qishni qulaylashtiradi va kitoblarni eshitish imkoniyatini taqdim etadi.

9. Mashhur asarlar tahlili: Sun'iy intellekt yordamida klassik va zamonaviy adabiyotlarni tahlil qilib, mavzular, uslub va til xususiyatlarini aniqlash mumkin.

10. Interaktiv o‘qish tajribasi: Foydalanuvchilar uchun qiziqarli formatlarda hikoyalarni o‘qish imkoniyatini beruvchi dasturlar, masalan, tanlovga asoslangan hikoyalar. Yuqorida sanab o‘tgan imkoniyatlar xalq tili bilan aytgan “Hamir uchidan patir” desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Men ham yosh pedagog, o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisi sifatida maktabda sun‘iy intellektidan doimiy ravishda foydalanib kelaman. Masalan, dars boshlanish oldidan o‘quvchilar darsga kirishib olishlari uchun dunyoda sodir bo‘layotgan eng yangi axborotlarni, bugungi kun yangiliklarini aytaman. Ular bilan qiziqarli mantiqiy savollar berish uchun ham sun‘iy intellektga murojaat qilaman. Eng asosiysi, sun‘iy intellekt orqali o‘rgangan yangi metodik texnologiyalar darsim qiziqarli va samarali o‘tishida katta yordam beradi.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishim kerakki, ilm olishni va ilm ulashishni istagan har bir sohaning zamonaviy vakillari ushuni sun‘iy intellekt eng ajoyib kashfiyot sanaladi. Undan unumli foydalanish va albatta, yaratilayotgan yangiliklarga ijobiy baho bera olish zarur.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlab o‘tishim lozimki, har bir narsaning qadri uning me’yori bilan yanada go‘zallashadi, ulug‘lanadi. Shu sababli ham sun‘iy intellekt badiiy ijodga va insonlarga qancha qulayliklar yaratmasin o‘z me’yorida ishlatilishi shartdir. Chunki, har bir yaratilayotgan kashfiyot, texnika va texnologiya insoniyatga, uning turmush tarzinining yengillashishiga, bashariyat taraqqiyotiga zimat qilishi lozim!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-60-son Farmoni.
2. Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. “Axborot texnologiyalari”. Oliy o‘quv yurti va litsey talabalariga qo‘llanma sifatida. Toshkent – “Noshir” – 2009
3. Xo‘jaqulov T.A., Malikov N.T “Sun‘iy intellekt” Toshkent – 2020
4. Qahramonov Q. “Badiiy so‘z qudrati” Toshkent – 2024